



**BUXGALTERIYA HISOBINI AVTOMATLASHTIRISH
JARAYONIDA SUN'iy INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI
VA AHAMIYATI**

Botirjonova Bonu Baxtiyor qizi,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Buxgalteriya hisobi va audit” yo'nalishi 3-kurs talabasi

Email: bonubotirjonova164@gmail.com

Ilmiy rahbar: Abdusalomova Nodira Baxodirovna

Annotatsiya. Hozirgi kunda sun'iy intellekt texnologiyalari deyarli barcha sohalarga kirib kelmoqda, hamda u barcha sohalarda murakkab ishlarni yengillashtirmoqda. Xususan, u buxgalteriya hisobiga ham kirib kelib, hisob-kitob jarayonlarini yanada mukammal qilmoqda. Ushbu maqola sun'iy intellekt (AI) yordamida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlardagi yashirin xatolar va firibgarlikni aniqlash imkoniyatlarini tahlil qiladi. Moliyaviy hisobotlarda ko'pincha sezilmaydigan xatolar yoki yashirin firibgarliklar katta moliyaviy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin hamda an'anaviy audit nazorati orqali ham ularni har doim aniqlay olmaydi. Mazkur maqolaning maqsadi AI texnologiyalari qanday qilib yashirin xatolarni tez va samarali aniqlash mumkinligini, shuningdek, bu jarayonning xalqaro moliyaviy standartlar (IFRS, IAS)ga mosligini o'rganadi, hamda sun'iy intellekt asosida buxgalteriya jarayonlarini avtomatlashtirishning moliyaviy axborot sifati va boshqaruv qarorlariga ta'sirini tadqiq etish hamda uning buxgalteriya qarorlarini optimallashtirishdagi o'rnini aniqlashdan iborat.

Kalit so'zlar: *Sun'iy intellekt (AI), raqamli iqtisodiyot, buxgalteriya hisobi, avtomatlashtirish, ichki nazorat, muhimlik, Generativ AI (GenAI)*

**The Role and Importance of Artificial Intelligence Technologies in the
Process of Accounting Automation**



Botirjonova Bonu Bakhtiyor qizi,

Tashkent State University of Economics

3rd year student of the “Accounting and Audit” specialization

Email: bonubotirjonova164@gmail.com

Scientific supervisor: Abdusalomova Nodira Bakhodirovna

Annotation. Nowadays, artificial intelligence technologies are entering almost all areas, and they are simplifying complex work in all areas. In particular, they have entered accounting, further improving accounting processes. This article analyzes the possibilities of detecting hidden errors and fraud in accounting and financial reporting using artificial intelligence (AI). Often unnoticed errors or hidden fraud in financial reporting can lead to significant financial losses and are not always detected by traditional audit controls. The purpose of this article is to study how AI technologies can quickly and effectively detect hidden errors, as well as the compliance of this process with international financial standards (IFRS, IAS), and to study the impact of AI-based automation of accounting processes on the quality of financial information and management decisions, and to determine its place in optimizing accounting decisions.

Keywords: Artificial Intelligence (AI), digital economy, accounting, automation, internal control, materiality, Generative AI (GenAI)

Kirish.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot sharoitida, korxonalar faoliyati ma'lumotlar hajmining keskin ortishi buxgalteriya hisobi tizimiga qo'yilayotgan talablarni tubdan o'zgartirmoqda. Ko'p yillar oldin buxgalteriya hisobi to'liq qo'lda, ya'ni qog'oz va daftarlar yordamida yuritilgan, bu esa juda ko'plab xatoliklarga, hisobotlar kechikishiga, ma'lumotlar qayta ishlanishiga va samaradorlikning pastligiga olib kelgan. Keyinchalik esa avtomatlashtirilgan dasturlar, jumladan 1C kabi tizimlar joriy qilindi, ular hisob-kitoblarni tezlashtirdi, ma'lumotlar aniqligini



oshirdi va xatolarni kamaytirdi. Ular murakkab moliyaviy ma'lumotlarni tahlil qilish, buxgalteriya jarayonlarini o'z vaqtida hisobga olish, xatolarni aniqlash, risklarni boshqarish va qaror qabul qilish sifatini oshirish imkonini beradi, ammo bizga ma'lumki buxgalteriya hisobida xatolar sodir bo'lish jarayoni ko'p kuzatiladi shu bilan birga firibgarlik ham yo'q emas. Hozirgi rivojlanish bosqichida sun'iy intellekt texnologiyalari buxgalteriya hisobini yangi darajaga ko'tarmoqda. Sun'iy intellekt (AI) murakkab moliyaviy ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish, xatolarni aniqlash, risklarni boshqarish va qaror qabul qilish sifatini yanada oshirish hamda osonlashtirish imkonini beradi. Biroq bir savol yuzaga keladi "AI barcha xatolar va firibgarlik holatlarini bartaraf eta oladimi?"

An'anaviy usulda buxgalteriya hisobi xo'jalik operatsiyalarini qayd etish va moliyaviy hisobotlarni shakllantirishga qaratilgan bo'lsa, hozirgi bosqichda u boshqaruv qarorlarini axborot bilan ta'minlovchi muhim tahliliy tizimga aylanib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunchiligiga ko'ra, Buxgalteriya hisobi deb barcha xo'jalik operatsiyalarini yaxlit, uzluksiz, hujjatlar asosida hisobga olish yo'li bilan buxgalteriya axborotini yig'ish, qayd etish va umumlashtirishning tartibga solingan tizimidan, shuningdek uning asosida moliyaviy va boshqa hisobotni tuzishdan iboratdir.¹

Demak, buxgalteriya hisobi faqat ma'lumot yig'ish vositasi emas, balki u boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlovchi, iqtisodiy faoliyatni tahlil qiluvchi va tashkilotning moliyaviy salomatligini ta'minlovchi tizimdir.

Hech o'ylab ko'rganmisiz, qo'lda yuritilgan buxgalteriya hisobida nechta xato yashirin qolishi mumkin? Rahbariyat qabul qiladigan qarorlar qanchalik ishonchli bo'ladi, agar moliyaviy ma'lumotlar to'liq yoki aniq bo'lmasa? Avval buxgalteriya hisobini qo'lda yuritish jarayonida xatoliklar va firibgarlik ehtimoli yuqori bo'lgan, moliyaviy hisobotlar kechikgan va qarorlar tezkor qabul qilinmagan. Keyinchalik, 1C kabi avtomatlashtirilgan dasturlar yordamida hisob-kitoblar

¹ O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-aprel "Buxgalteriya hisobi to'g'risida", O'RQ-404-son Qonuni



tezlashdi, ma'lumotlar aniqligi oshdi va xatolar kamaydi. Bugungi rivojlanish bosqichida sun'iy intellekt (AI) texnologiyalari bu jarayonlarni yangi darajaga ko'taradi. AI yordamida moliyaviy operatsiyalar avtomatik tekshiriladi, shubhali yozuvlar belgilanishi va inson nazoratiga yuborilishi mumkin. Shu orqali xatolar kamayadi, firibgarlik ehtimoli pasayadi va moliyaviy hisobotlarning sifati oshadi.

Korxonalar rahbariyati tezkor va asoslangan qaror qabul qilishi uchun buxgalteriya axboroti nafaqat to'g'ri, balki o'z vaqtida ham shakllantirilishi zarur, lekin xo'jalik operatsiyalari sonining ko'payishi, hujjatlar hajmining ortishi va real vaqt rejimida hisob yuritish talabi an'anaviy hisob yuritish usullarining samaradorligini pasaytirmoqda. Misol uchun ma'lumotlarni qo'lda qayta ishlash, provodkalarini shakllantirish va nazorat jarayonlari buxgalterga bog'liq bo'lib, bu xatoliklar yuzaga kelishiga hamda moliyaviy hisobotlar sifatining kamayishiga olib kelishi mumkin. Natijada esa buxgalteriya ma'lumotlariga asoslangan boshqaruv qarorlarining ishonchliligi ham kamayadi. Sun'iy intellekt asosida hujjatlarni avtomatik tanib olish, xo'jalik operatsiyalarini tasniflash, provodkalarini shakllantirish, xatolar va anomaliyalarni aniqlash hamda moliyaviy ko'rsatkichlarni prognozlash imkoniyati paydo bo'ldi. Bunday avtomatlashtirish natijasida buxgalteriya ma'lumotlarini qayta ishlash tezligi ortadi, buxgalter bilan bog'liq xatolar kamayadi va axborotning aniqligi oshadi.

Moliyaviy hisobotlar buxgalterning asosiy vazifalaridan biri bo'lib, u buxgalteriya hisoboti tizimida yig'ilgan va qayta ishlangan ma'lumotlarga tayangan holda tuziladi. Moliyaviy hisobot tashkilotning moliyaviy holati va moliyaviy natijalarining tartibga solingan ifodasidir. Moliyaviy hisobotning maqsadi turli foydalanuvchilar uchun iqtisodiy qarorlar qabul qilishda foydali bo'ladigan tashkilotning moliyaviy holati, moliyaviy natijalari va pul mablag'lar harakati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlashdan iboratdir. Moliyaviy hisobot, shuningdek, tashkilot rahbariyati tomonidan unga ishonib topshirilgan resurslar boshqarilishining natijalarini ham aks ettiradi.²

² 1-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti – Moliyaviy hisobotni taqdim etish



Sun'iy intellekt (AI) texnologiyalari inson aqlini taqlid qilish va uni kuchaytirish maqsadida ishlab chiqilgan. Uning asosiy imkoniyatlaridan biri - avval qo'lda bajarilgan vazifalarni avtomatlashtirish, masalan, buxgalteriya, soliq va audit ma'lumotlarini yig'ish va qayta ishlash. Biroq AI faqat avtomatlashtirish bilan cheklanmaydi; u tahlil qilgan ma'lumotlardan o'rganish, tushunchalar hosil qilish va murakkab muammolarni hal qilish imkoniyatiga ega.³ Ammo shu yerda bir savol tug'iladi "AI buxgalterning ishini faqat yengillashtiradimi yoki moliyaviy qarorlar sifatini ham tubdan o'zgartiradimi?"

Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash jarayonida AI xatolarni aniqlash, provodkalarini tekshirish va risklarni boshqarish imkonini beradi. Shu bilan birga, u buxgalterning qaror qabul qilish jarayonini qo'llab-quvvatlaydi va moliyaviy ma'lumotlarning ishonchliligini oshiradi. Shu bilan birga, ichki nazorat tizimi sun'iy intellekt (AI) bilan birgalikda ishlaganda yanada samarali natija beradi.

Ichki nazorat buxgalteriya hisobini yuritishda, moliyaviy va boshqa hisobotlarni tuzishda xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning qonuniyligini, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini, aktivlarning but saqlanishini ta'minlash, talon-toroj qilish hollari va xatoliklarning oldini olish hamda aniqlash maqsadida buxgalteriya hisobi subyektining rahbari tomonidan qabul qilingan hisob siyosati asosida tashkil etilgan chora-tadbirlar tizimidir. Buxgalteriya hisobi subyektini ichki nazoratni tashkil etadi va amalga oshiradi.⁴

Bugungi kunda sun'iy intellekt (AI) texnologiyalari ichki nazoratning samaradorligini yanada oshiradi. sun'iy intellekt (AI) yordamida provodkalar va moliyaviy operatsiyalar avtomatik tekshiriladi, shubhali yoki xatolik ehtimoli yuqori bo'lgan yozuvlar aniqlanadi. Shu tarzda, sun'iy intellekt (AI) ichki nazoratni qo'llab-quvvatlab, xatolarni kamaytiradi, firibgarlik ehtimolini pasaytiradi va moliyaviy hisobotlarning sifatini va ishonchliligini oshiradi. Natijada, buxgalterlar va rahbariyat tezkor va aniq qarorlar qabul qilish imkoniga ega bo'ladi.

³ Greenman, C., Esplin, D., Johnston, R., & Richards, J. (n.d.). *An Analysis of the Impact of Artificial Intelligence on the Accounting Profession*. Utah Tech University, USA.

⁴ O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-aprel "Buxgalteriya hisobi to'g'risida", O'RQ-404-son Qonuni



Sun'iy intellektning (AI) buxgalteriya kasbiga integratsiyalashuvi transformatsion o'zgarishlarni keltirib chiqardi, samaradorlik, aniqlik va buxgalterlar tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar ko'lamini oshirdi. Sun'iy intellektning odatiy vazifalarni avtomatlashtirish, katta ma'lumotlar to'plamlarini tahlil qilish va ma'lumotlarga asoslangan tushunchalarni taqdim etishdagi imkoniyatlari buxgalterlarga o'z e'tiborlarini qo'lda ma'lumotlarni qayta ishlashdan ko'proq strategik va maslahat rollariga o'tkazish imkonini berdi. Ushbu texnologik evolyutsiya nafaqat an'anaviy buxgalteriya funktsiyalarini soddalashtirdi, balki qiymat yaratish va biznesni rivojlantirish uchun yangi yo'llarni ham ochdi.⁵

Bundan tashqari "Moliyaviy hisobotni taqdim etish bo'yicha" 1-son Buxgalteriya hisobi xalqaro standartida muhimlik tushunchasini belgilaydi. Muhimlik shuni anglatadiki, ma'lumot, agar uni tushirib qoldirish, noto'g'ri ko'rsatish yoki yashirish umumiy maqsaddagi moliyaviy hisobot foydalanuvchilarining muayyan hisobot beruvchi tashkilot to'g'risidagi moliyaviy ma'lumot bilan ta'minlaydigan moliyaviy hisobot asosida qabul qiladigan iqtisodiy qarorlariga ta'sir ko'rsatishi asoslangan tarzda kutilsa, muhim hisoblanadi.

Muhimlik ma'lumotning xarakteri yoki miqdoriy kattaligiga yoxud ikkalasiga ham bog'liq. Tashkilot alohida olingan yoki boshqa ma'lumotlar bilan birgalikdagi ma'lumotlarning, umumiy holda, muhimligini uning moliyaviy hisobotlari kontekstida baholaydi.⁶

Bu standartga muvofiq muhimlik tushunchasining kiritilishi moliyaviy hisobotlarni tuzish jarayoni to'liq mexanik jarayon emasligini ko'rsatadi, chunki qaysi ma'lumot foydalanuvchi qaroriga ta'sir qilish yoki qilmasligi aniq formulaga ega emas balki u professional fikrlash orqali baholanadi. Demak, buxgalter moliyaviy axborotni faqat qayd etuvchi shaxs emas, balki uni tanlaydigan va talqin qiladigan qaror qabul qiluvchidir. Sun'iy intellekt buxgalteriya qarorlariga bevosita emas, balki moliyaviy axborot sifati orqali ta'sir ko'rsatadi. Aynan shu bir xil

⁵ Greenman, C., Esplin, D., Johnston, R., & Richards, J. (n.d.). *An Analysis of the Impact of Artificial Intelligence on the Accounting Profession*. Utah Tech University, USA.

⁶ 1-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti – Moliyaviy hisobotni taqdim etish



vaziyatda ikki nafar buxgalter turli darajadagi muhimlikni belgilashi mumkin. Bu esa moliyaviy hisobot sifati nafaqat standartlarga rioya etilishiga, balki qaror qabul qiluvchining tajribasi, ehtiyotkorligi va psixologik yondashuviga ham bog'liqligini anglatadi. Sun'iy intellekt texnologiyalari esa katta hajmdagi operatsiyalarni tahlil qilib, muhim bo'lishi mumkin bo'lgan tranzaksiyalarni avtomatik aniqlash orqali bu subyektivlikni kamaytirishi mumkin. Biroq yakuniy baholash baribir professional fikrlashga tayanadi. Bundan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, sun'iy intellekt (AI) buxgalterni ishini shunchaki yengillashtirmaydi, aksincha uning qaror qabul qilish sifatini qo'llab-quvvatlovchi vositaga aylanadi.

Agar ma'lumot moliyaviy hisobotning asosiy foydalanuvchilari uchun ushbu ma'lumotni tushirib qoldirish yoki noto'g'ri ko'rsatish kabi ta'sir ko'rsatadigan tarzda taqdim etilsa, u yashirilgan hisoblanadi. Muhim ma'lumotning yashirilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlarga quyidagilar misol bo'ladi:

1. muhim modda, operatsiya yoki boshqa hodisalar to'g'risidagi ma'lumotlar moliyaviy hisobotda yoritib berilgan, lekin ishlatilgan so'z birikmalari noaniq yoki tushunarli emas;
2. muhim modda, operatsiya yoki boshqa hodisalar to'g'risidagi ma'lumotlar butun moliyaviy hisobotda tarqoq aks etgan;
3. o'xshash bo'lmagan moddalar, operatsiyalar yoki boshqa hodisalar noo'rin tarzda jamlangan;
4. o'xshash moddalar, operatsiyalar yoki boshqa hodisalar noo'rin tarzda batafsillashtirilgan;

5. muhim ma'lumotlar muhim bo'lmagan ma'lumotlar orqali asosiy foydalanuvchi qaysi ma'lumotlarning muhimligini aniqlay olmas darajada yashirilishi natijasida moliyaviy hisobotning tushunarlilik kamayadigan holatlarda.

Ma'lumot muayyan hisobot beruvchi tashkilotning umumiy maqsaddagi moliyaviy hisobotining asosiy foydalanuvchilari tomonidan qabul qilinadigan qarorlariga ta'sir qilishini asoslangan tarzda taxmin qilish mumkinmi yoki yo'qligini



baholash tashkilotdan ushbu foydalanuvchilarning xususiyatlarini hisobga olish va shu bilan birga tashkilot o'zining holatlarini hisobga olishni talab qiladi.⁷

Ma'lumotning yashirilishi yoki noto'g'ri taqdim etilishi foydalanuvchi qarorlariga sezilarli ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli moliyaviy hisobotlarning tushunariligi va muhimligi faqat standartlarga rioya qilish bilan emas, balki professional baho bilan ham belgilanadi. Sun'iy intellekt katta hajmdagi operatsiyalarni tahlil qilib, muhim bo'lishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni aniqlash va tarqoq axborotni konsolidatsiya qilish orqali tushunarlikni oshiradi. Biroq yakuniy baho baribir inson qaroriga tayanadi, shuning uchun AI moliyaviy axborot sifatini va foydalanuvchi qarorlariga ta'sirini qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

O'tgan davr xatolari tashkilotning bir yoki undan ortiq o'tgan davrlar uchun moliyaviy hisobotidagi tushirib qoldirishlar va noto'g'ri ko'rsatishlar bo'lib, quyidagi shartlardagi ishonchli ma'lumotdan foydalanmaslik yoki noto'g'ri foydalanish natijasida yuzaga keladi: a) mazkur davrlar uchun moliyaviy hisobot e'lon qilish uchun ma'qullanganda mavjud bo'lgan; va b) mazkur moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etishda qo'lga kiritilishi va hisobga olinishi asoslangan tarzda mumkin deb hisoblangan.

Bunday xatolar matematik xatolarni, hisob siyosatini qo'llashdagi xatolarni, e'tiborsizlik yoki faktlarni noto'g'ri talqin etish oqibatlarini hamda firibgarlikni o'z ichiga oladi.⁸ BHXS 8-sonlida o'tgan davr xatolarining kelib chiqish sabablari sifatida e'tiborsizlik, noto'g'ri talqin qilish, hisob siyosatini noto'g'ri qo'llash hamda matematik xatolar keltirilgan. Mazkur holatlar moliyaviy hisobotlarni shakllantirish jarayonida inson omilining sezilarli rol o'ynashini ko'rsatadi. Xususan, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash, xo'jalik operatsiyalarini tasniflash va baholash zarurati buxgalterdan doimiy analitik qarorlar qabul qilishni talab qiladi.

⁷ 1-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti – Moliyaviy hisobotni taqdim etish

⁸ BHXS (IAS) 8 — “Hisob siyosati, hisob baholaridagi o'zgarishlar va xatolar”



Sun'iy intellekt texnologiyalarini buxgalteriya jarayonlariga joriy etish ushbu bosqichlarning bir qismini avtomatlashtirish imkonini beradi. Birlamchi hujjatlarni avtomatik tanib olish, operatsiyalarni klassifikatsiya qilish va hisob-kitoblarni avtomatik bajarish orqali matematik xatolar va ma'lumotlarni noto'g'ri qayta ishlash ehtimoli kamayadi. Natijada moliyaviy axborotning ishonchliligi oshadi hamda keyingi davrlarda o'tgan davr xatolarini tuzatish zarurati qisqaradi.

Shunday qilib, sun'iy intellektni buxgalteriya tizimida qo'llash nafaqat hisob jarayonini tezlashtiradi, balki BHXS 8 da ko'rsatilgan xatolarni yuzaga kelish ehtimolini kamaytirish orqali moliyaviy hisobot sifatini yaxshilovchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari hisoblash usuli hisobot beruvchi tashkilotning iqtisodiy resurslari va unga talab qilish huquqlariga oid operatsiyalar, shuningdek boshqa hodisa va holatlarning ta'sirlarini, hatto tegishli pul mablag'lari tushumi va to'lovlari boshqa davrda amalga oshirilgan bo'lsa ham, ushbu ta'sirlar yuzaga kelgan davrda aks ettiradi. Davr uchun hisobot beruvchi tashkilotning iqtisodiy resurslari va unga nisbatan talab qilish huquqlari, shuningdek mazkur iqtisodiy resurslar va talab qilish huquqlaridagi o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumot tashkilot faoliyatining oldingi va kelgusi natijalarini baholash uchun shu davr uchun faqat pul mablag'lari tushumi va to'lovlari to'g'risidagi ma'lumotdan ko'ra yaxshiroq asosni ta'minlaydi.⁹

Hisoblash usulining mohiyati shundan iboratki, moliyaviy hisobotlar korxonaga pul qachon kelgani yoki qachon to'langani emas, balki iqtisodiy hodisa qachon yuzaga kelganini aks ettirishi kerak. Amalda esa bunday ma'lumotlarni o'z vaqtida aniqlash va to'g'ri davrga tegishli qilish buxgalterdan ko'p miqdordagi hujjatlar va operatsiyalarni tahlil qilishni talab etadi. Operatsiyalar sonining ortishi sharoitida ayrim daromad va xarajatlarning noto'g'ri davrda e'tirof etilishi moliyaviy natijalarni buzishi mumkin.

Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ushbu muammoni kamaytirishga xizmat qiladi. Algoritmalar hujjatlarni avtomatik tanib, operatsiyalarni ularning iqtisodiy mazmuniga ko'ra tasniflaydi va tegishli davrga bog'laydi. Natijada

⁹ Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi



daromad va xarajatlarni davrlar bo'yicha to'g'ri taqsimlash imkoniyati oshadi, bu esa moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini kuchaytiradi.

Shunday qilib, sun'iy intellekt hisoblash usulini amalda to'g'ri qo'llashga yordam beruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi va moliyaviy axborotning nafaqat tezkorligini, balki mazmunan to'g'ri aks ettirilishini ham ta'minlaydi. Ammo shu bilan birga "Sun'iy intellektning moliya tizimlariga tez rivojlanishi ya'ni axborotni qayta ishlash, qaror qabul qilish va xavflarni boshqarish jarayonlarini tubdan o'zgartirmoqda, bu esa global bozorlar uchun noyob imkoniyatlar va yangi muammolarni yaratmoqda." Sun'iy intellektning yuzaga keltiradigan xavflari moliyaviy tartibga solish diqqatini an'anaviy siyosat maqsadlaridan tashqariga kengaytiradi. Moliyaviy barqarorlik, bozor halolligi, samaradorlik va raqobat kabi siyosat masalalaridan tashqari, iste'molchi huquqlari, jumladan maxfiylik va algoritmik diskriminatsiya kabi masalalar ham markaziy o'rin egallaydi. Bundan tashqari, AI yangi geosiyosiy xavflarni keltirib chiqaradi.¹⁰ Shu bilan birga sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarining buxgalteriya jarayonlariga joriy etilishi hisoblash jarayonlarini avtomatlashtirish va moliyaviy hisobot sifatini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, AI ning moliya tizimlariga kirib kelishi yangi murakkab muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Bir tomondan, u xatolarni kamaytiradi, firibgarlik ehtimolini pasaytiradi va ichki nazorat samaradorligini oshiradi. Boshqa tomondan, AI moliyaviy axborotni qayta ishlash, qaror qabul qilish va risklarni boshqarish jarayonlarini tubdan o'zgartirib, moliya siyosati uchun yangi xavf va masalalarni keltirib chiqarishi mumkin.

Sun'iy intellekt moliya tizimi dinamikasini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi; moliya tizimi esa iqtisodiyotning "miyasi" sifatida qaraladi. Qoidaga asoslangan tizimlardan Generativ AI (GenAI) ga o'tish evolyutsiyasini tahlil qilish orqali, AI texnologiyalari axborotni qayta ishlash, xavfni boshqarish va mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonlarini bosqichma-bosqich kuchaytirgani aniqlanadi, natijada moliya tizimining "kognitiv qobiliyati" sezilarli darajada oshadi. Shu bilan

¹⁰ Aldasoro, Ifiaki, Gambacorta, Leonardo, Korinek, Anton, Shreeti, Vatsala & Stein, Merlin (2024). *Intelligent Financial System: How AI is Transforming Finance*. Bank for International Settlements Working Paper No. 1194



birga, AI murakkab muammolarni ham keltirib chiqaradi. Misol uchun: modellarning shaffof emasligi, katta hajmdagi ma'lumotlarga qaramlik, algoritmik tarafkashlik va kiberxavfsizlik xavflari.¹¹ Shunday qilib, sun'iy intellekt nafaqat operatsion samaradorlikni oshiruvchi vosita, balki moliyaviy qarorlar sifatini yaxshilash va barqarorlikni qo'llab-quvvatlashda professional buxgalter yoki moliya mutaxassisi uchun qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida ham qabul qilinadi.

Xulosa qilib aytganda sun'iy intellekt (AI) texnologiyalari buxgalteriya hisobi jarayonlarini avtomatlashtirish, xatolarni kamaytirish va moliyaviy axborotning ishonchliligini oshirish imkonini beradi. Sun'iy intellektning buxgalteriya va moliya tizimlariga birlashishi bu nafaqat texnologik yangilik, balki moliyaviy axborotning sifatini oshirish, xatolarni kamaytirish va strategik qaror qabul qilishni takomillashtirish bo'yicha muhim transformatsion jarayondir. Shu bilan birga, uning yuzaga keltiradigan risk va murakkabliklarini hisobga olgan holda, professional buxgalterlarning baholashi hamon zaruriy ahamiyatga ega. Sun'iy intellekt buxgalteriya hisobining samaradorligi va moliyaviy hisobotlarning sifatini oshirishda juda katta rol o'ynaydi, xalqaro standartlar esa ushbu jarayonlarni ilmiy va qonuniy asos bilan mustahkamlaydi. Sun'iy intellekt (AI) katta hajmdagi ma'lumotlarni qisqa vaqt ichida tahlil qilish, operatsiyalarni avtomatik tasniflash, xatolarni aniqlash va firibgarlik ehtimolini baholash imkoniyatini beradi. Bu esa buxgalteriya jarayonlarida kelib chiqadigan texnik xatolar kamayishiga, ichki nazorat tizimi mustahkamlanishiga va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi oshashishiga yordam beradi.

FOYDALANGA ADABIYOTLAR

1. Aldasoro, Iñaki, Gambacorta, Leonardo, Korinek, Anton, Shreeti, Vatsala & Stein, Merlin (2024). *Intelligent Financial System: How AI is Transforming Finance*. Bank for International Settlements Working Paper No. 1194

¹¹ Aldasoro, Iñaki, Gambacorta, Leonardo, Korinek, Anton, Shreeti, Vatsala & Stein, Merlin (2024). *Intelligent Financial System: How AI is Transforming Finance*. Bank for International Settlements Working Paper No. 1194



2. Greenman, C., Esplin, D., Johnston, R., & Richards, J. (n.d.). *An Analysis of the Impact of Artificial Intelligence on the Accounting Profession*. Utah Tech University, USA.
3. Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti(IAS) 1-son – Moliyaviy hisobotni taqdim etish
4. Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (IAS) 8 -son — “Hisob siyosati, hisob baholaridagi o‘zgarishlar va xatolar”
5. Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi
6. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-aprel “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”,O‘RQ-404-son Qonuni
7. Lex.uz O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy veb sayti